

TILSHUNOSLIKDA SEMANTIK TIPOLOGIYA TUSHUNCHASI
ПОНЯТИЕ СЕМАНТИЧЕСКОЙ ТИПОЛОГИИ В ЛИНГВИСТИКЕ
THE CONCEPT OF SEMANTIC TYPOLOGY IN LINGUISTICS

Maxmudova Zuhra Maqsud qizi,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

maxmudova.zuhra@mail.ru

Аннотация: Ushbu maqolada tilshunoslikda keng ko‘lamda qo‘llanilishda bo‘lgan semantika hamda semantik qiyoslash tushunchalari haqida, uning kelib chiqish tarixi, tilshunoslikda qay o‘rinlarda foydalanilishi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Shuningdek, semantika tushunchasi haqida dunyo tilshunoslari tomonidan aytib o‘tilgan turli ta’riflar hamda nazariyalar o‘rin olgan. Turli tillar o‘rtasida ularda mavjud bo‘lgan so‘zlarni semantik jihatdan qiyoslashda atrof-muhit, borliqni tushunchalarga ajratishdagi farqlar, tafovutlar o‘rganiladi. Umuman olganda, semantik tipologiya tilshunoslikning turli tillar o‘rtasidagi ma’no anglatish tushunchasini tipologik jihatdan talqin etuvchi lingvistik soha hisoblanadi.

Калит so‘zlar: Semantik tipologiya, mazmun, ifoda sathi, leksik birlik, ma’no plani.

Аннотация: В данной статье представлена информация о понятиях семантики и семантического сравнения, которые широко используются в языкознании, об истории его возникновения и о том, где оно применяется в языкознании. Существуют также различные определения и теории понятия семантики, упоминаемые мировыми лингвистами. При семантическом сопоставлении слов разных языков изучаются окружающая среда, различия в разделении существования на понятия, различия. В целом семантическая типология — это лингвистический раздел языкознания, который типологически интерпретирует понятие значения между разными языками.

Ключевые слова: Семантическая типология, содержание, уровень выраженности, лексическая единица, смысловой план.

Abstract: This article provides information about the concepts of semantics and semantic comparison, which are widely used in linguistics, the history of its origin, and where it is used in linguistics. There are also various definitions and theories about the concept of semantics mentioned by world linguists. In the semantic comparison of words between different languages, the environment, the differences in the division of existence into concepts, and differences are studied. In general, semantic typology is a linguistic branch of linguistics that typologically interprets the concept of meaning between different languages.

Key words: Semantic typology, content, level of expression, lexical unit, meaning plan.

Semantika tildagi ma'noni o'rganadi. Biz bilamizki, til tushunilishi mumkin bo'lgan turli xil ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ammo ma'nolar bizning ongimizda mavjud va biz ongimizdagi tushunchalarni og'zaki hamda yozma nutq (shuningdek, imo-ishoralar, harakatlar va boshqalar) orqali ifodalashimiz mumkin. Tilning tovush shakllari fonetika sohasida izchil o'rganilsa, so'z va gaplarning tuzilishi haqidagi ma'lumotlarga esa morfologiya va sintaksis bo'limlarida ega bo'lishimiz mumkin. Ushbu tilshunoslik bo'limlari biz ma'lum bir gap yoki xabarning asl ma'nosini anglashimiz yoki suhbatdoshga yetkazishimiz uchun xizmat qiladi. “Til mazmunli bo'lishi uchun qanday tuzilishga ega?” Semantika tushunchasi ushbu savolga yaqqol javob bo'la oladi. Semantika - bu ma'no tahlil qilinadigan lingvistik tahlil darajasidir. Bugungi kunda ma'lum bir tilni nafaqat yaxshi o'rganish, balki uni to'g'ri tahlil va tadqiq qilish uchun eng asosiy o'rganilishi muhim bo'lgan lingvistik sohalardan biri semantikadir.

So'zlarni semantik qiyoslash doirasida turli tillarda uchraydigan atrof-muhit, borliqni tushunchalarga ajratishdagi farqlar, tafovutlar o'rganiladi. Boshqacharoq qilib tushuntirganda, bu lingvistikaning turli tillar o'rtasidagi ma'no anglatish konseptini tipologik jihatdan talqin etuvchi lingvistik soha hisoblanadi (Koptjevskaja-Tamm, 2008). O'z navbatida, turli tillar o'rtasidagi ular anglatgan ma'no konsepsiyasini o'rganish til, madaniyat va idrokning o'zaro bir-biriga ta'sir doirasini

o‘rganish demakdir. Shundan kelib chiqib, lingvistika bilan antropologiya, psixologiya va shu kabi boshqa sohalar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik borligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning ayniqsa kognitiv tilshunoslik bilan bevesta aloqasi o‘z isbotini topadi.

Jahon tilshunoslik sohasida so‘nggi bir necha yillar davomida semantic tipologiya yuzasidan olib borilgan ishlar anchagina ko‘paydi. Ulardan ba‘zilari semantik tipologiya konseptini umumiy jihatdan muhokama qilgan bo‘lsalar (Bach va Chao, 2009; Evans, 2011), boshqa semantikaga oid ishlar aynan semantikaning kategoriyalar va ularning turli tillar o‘rtasida foydalanishdagi tadqiqiga bag‘ishlabgan (Boas, 1911; Sapir, 1929; Whorf, 1956; Witkowski and Brown, 1978; Wierzbicka, 1992; Koch, 2001; Brown, 2001; Boster, 2005; Koptjevskaja-Tamm et al., 2007; Malt and Majid, 2013; Majid, 2015).

Tilshunoslik tarixida so‘z tushunchasi turli yo‘nalishlarda, xususan, qonqarindoshlik (Murdock, 1949; Nerlove and Romney, 1967), ranglar jilosida (Berlin and Kay, 1969; Kay and McDaniel, 1978), urug‘ biologiyasi (Brown, 1984; Berlin, 1992), raqamlar sistemasi (Greenberg, 1978; Comrie, 2013), va makon-joy (Talmy, 2000; Levinson and Meira, 2003; Majid et al., 2004) domenlarida ulkan ishtiyoq bilan tipologik jihatdan o‘rganildi.

Tilshunoslik sohasining aynan semantika bo‘limida tildagi rivojlanishning aynan madaniy taraqqiyotiga oid o‘zgarishlarni uchratamiz. Shu o‘rinda keltirib o‘tishimiz joizki, A. Verbiskaya semantikani “ma’no olamining ko‘zni qamashtiradigan go‘zalligi” deb ta’riflagan (Wierzbicka, 1996). Yana bir tilshunos olim Leo Spitzerning tasnifiga ko‘ra esa, “mazmun madaniy iqlimning eng yaxshi barometridir” (Spitzer, 1947). –tilni o‘rganishdagi eng asosiy o‘lchov birligi bu ma’no va mazmun mushtarakligidir. Ammo tilning ifoda sathidagi birliklari bo‘lmish morfema, so‘z va gap bir necha bor tahlil va tadqiq qilingan, aniq va lo‘nda andozalarga mos keladigan, qonun-qoidalarga bo‘ysunadigan bo‘lishiga qaramasdan, uning ma’no planidagi birliklari bo‘lgan sememalar hali to‘liq va mufassal holatfa o‘rganilgani yo‘q, shu bilan birga, u tizimlashgandan ko‘ra ko‘proq kontekstuallik

hususiyatiga ega. “Tilda mavjud cheksiz tushuncha va kategoriyalar ichidan ko‘pchiligi xilma-xil, mavhum va aniq sarhadlarga ega emasligi bilan ajralib turadi. Juda kam qismigina nisbatan yaqinroq chegaralarga ega bo‘lib, xolisona o‘xshashlik va farqlar asosida tadqiq qilinsa bo‘ladi”, deb yozadi David Luis (Lewis, 1984). Bundan kelib chiqadiki, tillar o‘rtasidagi o‘zaro mazmuni chog‘ishtirib o‘rganishning o‘ziga yarasha murakkabliklari olib borilayotganishda maqsad yo‘lida biroz to‘sqinliklar tug‘dirishi mumkin. Nikolas Evansning fikriga ko‘ra, lingvistikaning ushbu ma’no ifodasi bilan shug‘ullanadigan sohasi o‘ziga asosiy birlik sifatida belgi (ingliz tilida the sign) tanlaydi (Evans, 2010).

Belgi tushunchasi birdan ortiq ma’noga ega bo‘lib, birgina lingvistikaning turli sohalari nuqtai nazaridan turlicha talqin qilinadi. Ushbu tadqiqotda semantik tipologiyaning vositachi birligi sifatida leksemaga e’tibor qaratiladi. Shu o‘rinda semantik tipologiyaning leksik tipologiya bilan aloqadorligi ham namyon bo‘ladi. Xususan, leksik sistema tipologiyasidagi bir necha muhim vazifalar bilan semantic tipologiya ham bevosita shug‘ullanadi. Ular quyidagilar:

- So‘z jamg‘armasining hajmi
- Leksikaning semantik-tematik strukturasi
- Lug‘at tuzilishidagi stilistik rang-baranglik va keng ko‘lamlilik
- Turli ma’no ifodalashdagi yangi manbalar va lug‘atlarni vositali kengaytirishdagi nisbiy samaradorlik.

Yaqqol namoyon bo‘lyaptiki, har qanday tilning lug‘at qamrovi va ma’no planini ushbu tilda so‘zlashuvchi aholi, millat yashab turgan ijtimoiy-geografik muhit-sharoit, ayni hududda shug‘ullanish imkoni bo‘lgan kasb va mashg‘ulotlar orqali o‘rganib, tushuncha hosil qilish, faraz qilish eng to‘g‘ri yo‘l bo‘ladi. Zero, shu joyida izohlab ketish lozimki, sinxronik nuqtai nazardan o‘zbek tili ma’lum jug‘rofiy chegara bilan o‘ralganligi sababli ham, tilning so‘z jamlanmasiga diaxronik yondashish til evolyutsiyasining tarixiga, ya’ni o‘z ma’nosida kattaroq hududlar, aholi soni ko‘p bo‘lgan milatlar, konsepsiyalar, mashg‘ulotlar va albatta ularning terminologiyalariga chuqurroq yondashishni taqozo etadi. Bu tahlil esa avval mavjud

bo‘lgan leksikonning ma’no chegarasini yanada oshirib, hali ma’lum bo‘lmagan, hayratli semantik vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu holatni ingliz tili tahliliga nisbatan oladigan bo‘lsak esa, bu borada umumiy xulosalar keltirish deyarli ilojisizdir. Buning asosiy sababi, bu til o‘z navbatida dunyoning ko‘plab etnik, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan madaniyatlar hamda xalqlarni birlashtira olgan. Shu bilan birgalikda, jadal rivojlanayotgan zamonda ixtiro qilinayotgan kashfiyotlar, yangiliklar bilan aloqador bo‘lgan yangi tushunchalarning ham ko‘pchiligi aynan shu til bilan bog‘liqligi hech kimga sir emas.

Semantik tipologiya mazmun rejasi birliklarini tipologik tadqiq qiladi. Mazmun rejasi deganda tilning semantik strukturasi tushuniladi. Tipologik qiyoslash semantik qiyoslashni ham o‘z ichiga oladi. Semantik qiyoslash semantik tipologiya asosida yuzaga keladi. Semantik tipologiya semantik kategoriyalarning ifodalanishidagi mushtaraklikni mavhumlashtiradi va ma’lum tushunchalarning turli tillar tizimi ifoda rejasi birliklari vositasida talqin etilishini o‘rganadi. Turli tillar lug‘atlarini tuzishda, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda semantik tipologiya qonunlarining amaliy ahamiyati katta.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dilorom, I. (2021). Semantic-structural peculiarities of shakespearean neologisms. *Social Sciences, Humanities and Education Journal (SHE Journal)*, 2(2), 78-82.
2. Ganieva, M. S. (2021). Socio-philosophical aspects of the study of the issue of gender and entrepreneurial woman in a new society. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(12), 441-445.
3. Dushatova, S., & Azamov, M. (2022, November). SO'Z TURKUMLARI TASNIFI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 1, No. 6, pp. 89-95).
4. Koptjevskaja-Tamm, M., 2008. Approaching lexical typology. In: M. Vanhove, 2008. pp. 3-52

5. Lewis D. Putnam's paradox // Australasian Journal of Philosophy. 1984. – T. 62,3. – pp 221-236
6. Musinovna, S. K., & Alisherovna, M. B. (2023). USING SOMATISMS IN PAREMIOLOGICAL UNITS.
7. Mirzayeva, G. S. (2022). MILLIY VA MADANIY KOLORITINI IFODALASHDA REALIYANING ENG MUHIM HUSUSIYATLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(7), 61-65.
8. Nicholas Evans. Semantic typology of uncorrected proof – first proof, 2010
9. Spitzer Leo; Essays in historical semantics. – New York: Russell and Russell, 1947
10. Wierzbicka A. Semantics: primes and universals. – New York: Oxford University Press, 1996. pp. 233